

# Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2017 yil yanvar-noyabr

## RAQAMLAR:

- 2017 yil yanvar-noyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 7027,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'atlari 129,5 foizni tashkil qildi.
- Jami bozor xizmatlarida transport xizmatlarining ulushi— 26,5 foiz.

Xizmatlar ko'rsatishning sifati va qulayligini tubdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlamoqda.

2017 yil yanvar-noyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 7027,1 mlrd so'mni tashkil etib, 105,6 foizga oshdi.

Xizmatlar tarkibida end katta ulush savdo xizmatlari (31,9 foiz), transport xizmatlari (26,5 foiz), moliyaviy xizmatlar (8,4 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,9 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.


## 2017 yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar tarkibi, % da



## Xizmatlar sohasi

2016–2020 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi doirasida qabul qilingan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlariga erishish imkonini berdi. Jumladan, moliyaviy xizmatlar bo'yicha o'sish sur'atlari—129,5 foizni; aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha – 119,9 foizni; ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha 119,7 foizni; yashash va ovqatlanish xizmatlari – 106,2 foizni tashkil etdi.

### 2017 yil yanvar-noyabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari o'sish sur'atlari, % da



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari o'sish sur'atining oshishiga telekommunikatsion xizmatlar ta'sir ko'rsatdi (mobil aloqa xizmatlari, internet tarmoqlari, IP-telefon va boshqalar).**

Transport xizmatlari hajmining oshishi yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga bo'lgan talabning oshganligi hamda turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish jarayonlarining davom ettirilayotganligi bilan izohlanadi.

2017 yil yanvar-noyabr oylarida  
aholi jon boshiga ko'rsatilgan  
xizmatlar hajmi 1745,9 ming  
so'mga teng bo'ldi.

Viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: **A.Abdullayev**  
(71) 230-85-35